

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Abduraxmonova Nigoraxon Akramali qizi
Qo‘qon Universiteti o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijodiy faoliyatini rivojlanantirish orqali rivojlanayotgan jamiyatda uchrashi mumkin bo‘lgan turli xil vaziyatlarda mustaqil ravishda mas’uliyatli qarorlar qabul qila oladigan, ularning oqibatlarini bashorat qila oladigan, hamkorlik qilishga qodir, harakatchanlik, konstruktivlik bilan ajralib turadigan, tashabbuskor mutaxassislarni tayyorlash bo‘yicha atroflicha fikrlar bildirildi. Shuningdek yetuk mutaxassislarni tayyorlashda ularning ijodiy faoliyati nechog‘li zarur ekanligi, ularning ijodiy faoliyatini rivojlanantirish pedagogik muammoligi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: ijodiy faoliyat, raqobatbardosh mutaxassis, mutaxassislarni tayyorlash.

ABSTRACT

In this article, through the development of the creative activity of future elementary school teachers, they are able to independently make responsible decisions in various situations that they may encounter in a developing society, can predict their consequences, are able to cooperate, mobility, detailed opinions on the training of enterprising specialists distinguished by constructiveness were expressed. It is also explained how important their creative activity is in the training of mature specialists, and the pedagogical problem of developing their creative activity.

Key words: creative activity, competitive specialist, training of specialists.

Bugungi kunda oliy ta’lim tizimiga qo‘yiladigan ijtimoiy talablardan biri rivojlanayotgan jamiyatda uchrashi mumkin bo‘lgan turli xil vaziyatlarda mustaqil ravishda mas’uliyatli qarorlar qabul qila oladigan, ularning oqibatlarini bashorat qila oladigan, hamkorlik qilishga qodir, harakatchanlik, konstruktivlik bilan ajralib turadigan, tashabbuskor mutaxassislarni tayyorlash.

O‘z navbatida, ta’limning asosiy maqsadi - bu mehnat bozorida raqobatbardosh, o‘z kasbini yaxshi biladigan va tegishli faoliyat sohalariga yo‘naltirilgan malakali mutaxassisni tayyorlash, o‘z mutaxassisligi bo‘yicha jahon standartlari darajasida samarali ish, doimiy kasbiy o‘sishga, ijtimoiy va professional harakatchanlikka ega

mutaxassislarni tayyorlashdir.

Mutaxassislarni tayyorlashga qo‘yiladigan talablar shuni ko‘rsatadiki, uning keljakdagi kasbiy faoliyati va hayotining muvaffaqiyati va samaradorligi ta’lim muassasasining bitiruvchisi kasbiy faoliyatga qanday kirishiga, uning faol ijodiy faoliyatga qanchalik tayyorligiga, ehtiyojlarini shakllantirganiga, o‘zini takomillashtirish va kasbiy o‘sishga bog‘liq hisoblanadi.

Mutaxassislar tayyorlash - bu turli xil omillar ta’sirida yuzaga keladigan uzoq, murakkab, qarama -qarshi jarayon bo‘lib, ularning eng muhimlaridan biri ularni ijodiy faoliyatiga tayyorlashdir. Mutaxassisning muvaffaqiyatli ilmiy faoliyati nafaqat uning ilmiy tajribasi va kasbiy aloqalari bilan, balki uning ilmiy tajribasi bilan ham belgilanadigan eng katta jarayondir. Bo‘lajak mutaxassislarda mustaqil ijodiy faoliyatni olib borish ko‘nikmalarini shakllantirish ya’ni, o‘quv va ilmiy adabiyotlar bilan ishlashni o‘rgatish, ma’lumot to‘plash va tahlil qilish, tizimlashtirish, faktlarni umumlashtirish va konferensiyalarda ma’ruzalar bilan qatnashishlarini tashkil etish lozim.

Oliy ta’lim tashkilotlarida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ilmiy - ijodiy ko‘nikmalari mamlakat iqtisodiyoti ehtiyojlari uchun malakali mutaxassislar tayyorlashning eng samarali usuli, ilmiy salohiyatni faollashtirish va rivojlantirishning samarali vositasi. Zero, bugungi kunda ilm - fan va ishlab chiqarish integratsiyasining tobora kuchayib borayotgan tendensiyasi sharoitida, mustaqil qaror qabul qiladigan ijodiy va ishlab chiqarish faoliyatlari ayniqla muhimdir.

Bugungi kunda olib borilayotgan ta’limni modernizatsiya qilish sharoitida ta’lim oluvchilarning ta’lim faoliyati izlanishlarga aylanib bormoqda. Shuning uchun, hozirgi vaqtida o‘quv jarayoniga bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ilmiy ijodiy va tajriba - konstruktiv faoliyatini joriy etish alohida ahamiyatga ega. Raqobatbardosh mutaxassis ijodiy bilimlari va ko‘nikmalariga ega bo‘lishi, o‘z faoliyatini tahlil qilishi va loyihalashtirishi, mustaqil harakat qilishi, noaniqlik sharoitida, o‘z-o‘zini takomillashtirishga (o‘z-o‘zini bilish), o‘z-o‘zini nazorat qilishga, o‘z-o‘zini hurmat qilishga, o‘zini o‘zi tartibga solishga va o‘z-o‘zini rivojlantirishga doimiy intilishi kerak.

O‘qitishdagi ijodiy ta’lim oluvchilar o‘zлари o‘rganayotgan fanlarda qo‘llaniladigan asosiy ijodiy usullari bilan tanishadilar, hodisalar va jarayonlarni o‘rganish orqali o‘zлари uchun mavjud bo‘lgan ijodiy usullari elementlarini o‘zlashtiradilar va mustaqil ravishda yangi bilimlarni olish qobiliyatini egallaydilar. Ijodiy tamoyilining qo‘llanilishi bo‘lajak boshlang‘ish sinf o‘qituvchilarining bilim qobiliyatini, faolligi va mustaqilligini rivojlantirishga yordam beradi, bilim va bilim faoliyati usullarini o‘zlashtirishga qiziqishni oshiradi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijodiy faoliyatini rivojlantirish

metodikasini takomillashtirish jarayonining muhim tarkibiy qismi - oldinga qo‘yilgan maqsadga erishish va tanlangan vazifalarni hal etish uchun pedagogik faoliyatni tashkil etishni belgilaydigan tamoyillardir.

Maqsadlarni belgilash, o‘z faoliyatini rejalashtirish, o‘z harakatlarini nazorat qilish va baholash, tanqidiy fikrlash va o‘z xulosalarini ishlab chiqish qobiliyati bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi uchun muhim ahamiyat kasb etadi

Shuning uchun bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijodiy faoliyatini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish faoliyati asoslarini o‘rgatadigan bo‘lajak mutaxassislarni kasbiy tayyorlashning yangi tizimini ishlab chiqish zarurati tug‘ildi. Bo‘lajak o‘qituvchilarning ko‘nikmalarini rivojlantirish davlat ta’lim standartlarida, fan dasturlarida o‘z aksini topgan. Xususan, “Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi”, “Mutaxassislikka kirish” fanlari dasturida o‘quv fanining dolzarbligi oliy kasbiy ta’limdagи o‘rni sifatida bo‘lajak boshlang‘ich sinf ijodiy kasbiy faoliyatini takomillashtirishni shakllantirish ta’kidlangan. Shuningdek ushbu fan dasturlarida tavsiya etilayotgan mustaqil ta’lim mavzularida ham ilmiy tadqiqot, ilmiy ijodiy metodlariga ahamiyat qaratilgan.

Oliy ta’lim muassasasi boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi malaka talablarida bo‘lajak boshlang‘ich sinf ijodiy faoliyatini takomillashtirish boshlang‘ich kompetensiyaning samaradorligini ta’minlovchi tarkibiy qismi sifatida qaralgan va ijodiychilik kompetensiyasi tarkibiga quyidagi kompetensiyalar kiritilgan: ijodiy chilik faoliyatiga ehtiyoj va uni anglash; ijodiychilik xarakteridagi o‘quv-kasbiy topshiriqlarni bajarish jarayonida vujudga keladigan qiyinchiliklarni bartaraf etishda ijodiychilik ko‘nikmalarini qo‘llash; ijodiychilik faoliyatiga oid asosiy bilimlarni mustaqil qidirish, tizimlashtirish va tahlil qilish hamda ularni amaliyotda qo‘llash; turli xil qiyinlik darajasidagi ijodiychilik xarakteridagi o‘quv-kasbiy topshiriqlarni bajarishda mustaqilligi, faolligi va o‘z shaxsiy tashabbusi bilan ijodiychilik ko‘nikmalarini namoyon eta olish; ijodiychilik texnologiyasini egallash.

Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijodiy faoliyatini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish faoliyati o‘quv jarayonining shakllaridan biri bo‘lib, unda o‘qitish va amaliyot muvaffaqiyatli birlashtiriladi. Ilmiy ishlar doirasida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining birinchi navbatda ijodiy faoliyatning birinchi ko‘nikmalarini egallaydi, so‘ngra amaliyot bilan bog‘liq bo‘lgan u yoki bu tarzda olingan nazariy bilimlarni ijodiy faoliyatga kiritishni boshlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

- 1.Solov'eva N.M., Osirova O.R. Formirovanie issledovatel'skoy kompetentnosti obushayuushchixsya s ushetom sretifikasi rroblem regiona / Sovremennoe pedagogisheskoe obrazovanie. 2019 g. №4. 173-178-bet.
- 2.Raxmatova F. Bo'lajak boshlang'ish sinf o'qituvchilarining ijodiy chilik kompetentsiyalarini rivojlantirish. Jamiyat va innovatsiyalar – Ob'chestvo i innovatsii – Sosiyety and innovations. Issue – 1 (2021) / ISSN 2181-1415
- 3.ST Davlatova, FS qizi Abdullayeva BOLALARNING MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYASIGA OID OTA-ONALARNING QARASHLARI Educational Research in Universal Sciences 2 (16), 819-823
- 4.Shahnoza, I., & Ikromjonovna, J. S. (2023). Boshlang'ich sinf o'quvchilarining dunyoqarashini shakllantirishda ertaklarning o'rni. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 806-808.
- 5.Mirzaliyevna, S. Z. (2023). BOSHLANG 'ICH SINF O'QUVCHILARINI IJODKORLIKKA O'RGATISHDA XORIJIY TAJRIBALAR DAN FOYDALANISH METODIKASI (O'QISH VA ONA TILI O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARI MISOLIDA". Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(6), 598-603.
- 6.Parpiyev Odiljon Olimovich. (2023). RIVOJLANISH VOSITASI SIFATIDA TRIZ TEKNOLOGIYASINING XUSUSIYATLARI . ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 24(1), 17–20. Retrieved from <https://www.newjournal.org/index.php/01/article/view/7877>
- 7.Komiljonova, E. G. (2023). INSON QADRI VA BARKAMOL AVLOD SHAKLLANISHIDA PEDAGOGIKANING O'RNI. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 788-789.
- 8.Ikromjonovna, J. S. (2023). BOSHLANG'ICH SINFLARGA TA'LIM BERISH JARAYONIDA ZAMONAVIY METOD VA VOSITALARNING AHAMIYATI. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 581-583.